



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI



BUKHORO
DAVLAT
UNIVERSITETI



ЎЗБЕКИСТОН RESPUBLIKASI
INNOVATSION
RIVOJLANISH VAZIRLIGI

БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИНГ УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ

МАВЗУСИДА ВАЗИРЛИК МИҚЁСИДАГИ
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ

МАТЕРИАЛЛАРИ

BUKHORO DAVLAT UNIVERSITETI

БУХОРО-2020

**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ
ОЛИЙ ВА ЎРТА МАХСУС ТАЪЛИМ ВАЗИРЛИГИ**

БУХОРО ДАВЛАТ УНИВЕРСИТЕТИ

БОШЛАНҒИЧ ТАЪЛИМ МЕТОДИКАСИ КАФЕДРАСИ

**“БОШЛАНҒИЧ СИНФ ОНА ТИЛИ ТАЪЛИМИНИНГ
УЗВИЙЛИГИНИ ТАЪМИНЛАШДА ИННОВАЦИОН
ТЕХНОЛОГИЯЛАРДАН ФОЙДАЛАНИШ”**

**МАВЗУСИДА ВАЗИРЛИК МИҚЁСИДАГИ
ИЛМИЙ-АМАЛИЙ КОНФЕРЕНЦИЯ**

МАТЕРИАЛЛАРИ

2020 йил 16-17 март

БУХОРО - 2020

<i>Qo'ldoshev R.A., Qayumov L., To'xtorova N.</i> Savod o'rgatish jarayonida o'quvchilarni yozuvga o'rgatish	72
<i>Husenova F. S.</i> Boshlang'ich sinflarda interfaol usullardan samarali foydalanish	75
<i>Hakimov F.N., Galpov A.J., Musurmonqulova N.I.</i> Savod o'rgatish jarayonida audio vositalari yordamida harf va tovush, bo'g'in mavzularini o'rgatish texnologiyasi	77
II SHU'BA	
BO'SHLANG'ICH SINFLARDA ONA TILI DARSLIKLARINI YARATISH MUAMMOLARI	
<i>Safarova N.</i> Uzlaksiz ta'lim tizimi uchun didaktik materiallar yaratish va takomillashtirish - dolzarb muammo sifatida	80
<i>Qodirov T., Jumayev R.X.</i> Yangi avlod ona tili darsliklarini yaratish jamiyat taraqqiyoti asosi	82
<i>Jumayeva H.G'.</i> O'qish kitoblari yaratilishi tarixiga oid ayrim mulohazalar	84
<i>Xayrullayeva D. N.</i> 4-sinf "ona tili" darsligi haqida mulohazalar	88
III SHU'BA	
ONA TILI VA UQISH DARSLARIDA MA'RIFIY-Aхлоқий FAZILATLARNI SHAKLLANTIRISH	
<i>Jumaniyozova M., Bobojonova I.</i> Boshlang'ich sinf o'qish darslarida o'quvchilarda umuminsoniy qadriyatlarni shakllantirish	91
<i>Jumayev R.X., Elmurodova Sh.T.</i> 3 sinf uqish darsliklaridagi rasmlarning uquvchilar tarbiyasidagi pedagogik-psixologik ahamiyati	93
<i>Husratov A. H.</i> "Musakkihi a'bob" asari xvi-xvii asrlar Buxoro xonligidagi pedagogik tafakkur mazmunini ertuvchi muhim manba sifatida	97
<i>Qodirova S.A.</i> Zarbulmasal-zurubi amsol tarixi	99
<i>Xampoeva Z.</i> Boslang'ich sinflarda amalga oshiriladigan ma'naviy-ma'rifiy ishlarining pedagogik-psixologik xususiyatlari	102
<i>Rustamova G. B.</i> Boshlang'ich sinflarda xalq maqollarini o'qitish orqali ma'naviy-axloqiy sifatlarni shakllantirish	105
<i>Saidova H.</i> Sharq muta'fakkirlari ilmiy meroslarida shaxs kamoloti masalasi (Abu Nasr Forobiy ta'limoti asosida)	107
<i>Rahmonova G.</i> Uquvchilarda milliy ma'naviy kadriyatlariga ehtiёjni tarbiyalash dolzarb vazifa sifatida	109
<i>Kuyikova G. X.</i> Insonning zafarli hayoti	111
<i>To'xtaboyeva B.</i> Boshlang'ich sinflarda harakatli o'yinlar	113
<i>Gulbobaeva F.</i> Boslang'ich sinf uquvchilarida ta'lim va tarbiya sifatlarni shakllantirishda oilaning urni	116
<i>Musayeva D.</i> Boslang'ich sinf uquvchilarida ma'naviy kadriyatlarini shakllantirishning pedagogik asoslari	118
<i>Husratov A. H.</i> XVI-XVII asrlarda Buxoro xonligida pedagogik fikrlar mazmuni	121
<i>Narzullayeva Sh.</i> Zamonaviy intellektual salohiyatli yoshlar tarbiyasida ma'naviy axloqiy fazilatlarining o'rni	123
<i>Ashurova X. R.</i> O'zbek bolalar nasrining tadrijiy tamoyillari va xususiyatlari	125
<i>Sharipova N. R.</i> O'qish kitoblaridagi hikoya janri namunalari va ularning mavzuiy-badiiy mundarijasi	128
<i>Nurova Y.U.</i> Boslang'ich sinf o'quvchilarini ma'naviy-axloqiy tarbiyalash	132
<i>Hotamova D. Ch.</i> Boslang'ich sinflarda mumtoz asarlarga oid badiiy parchalarni o'qitish texnologiyasi	133

topishi zarur. Ta'lim berish jarayoni intensional, maqsadli va ma'naviy munosabatlarning yuzaga kelishiga to'la zamin yaratmaydi. O'zlashtirilayotgan material o'quvchi uchun shaxsiy ma'no kasb etadi. Ya'ni, ta'lim bir xil sharoitda berilsada, o'quvchilar tomonidan bilimlarni o'zlashtirish turlicha bo'lishi mumkin. Shunga qaramay tadqiqot qilish maqsadida o'quv materialini loyihalashda ushbu muammoni hal etish va ta'lim berishning qulay usullarini qo'llash ijobiy natijalar beradi.

Didaktikaning psixologik xususiyati, o'quv materialining tarkibiy tuzilishini didaktik jihatdan tahlil qilish asosida yoritib beriladi. Bunday tahlil natijasida o'quvchilarda bilim olishga nisbatan qiziqish yuzaga keladi, shu bois o'quv materialining tuzilishiga alohida e'tibor berish zarur.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Краевский В.В. Определение функций учебника как методологическая проблема дидактики. // Проб. школн. учеб. Вып. 4. – М.; Просвещение, – 1976. – С. 13-36.
2. Maxmudov M. Ta'limni didaktik loyihalash prinstiplari. // Pedagogik mahorat. jur. – 2001. – № 3. – B. 95- 99.
3. Maxmudov M. Ta'limni didaktik loyihalash (Risola). – T.: Abdulla Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2002. – 79 b.

YANGI AVLOD ONA TILI DARSlikLARINI YARATISH JAMIYAT TARAQQIYOTI ASOSI

T.Qodirov, fors va ingliz tili mutaxassisi
R.X. Jumayev, BuxDU o'qituvchisi

Ushbu maqolada boshlang'ich ta'lim tizimi uchun zarur bo'lgan zamonaviy darsliklar yaratish muammolari va buning muammolari haqida fikr yuritilgan.

Tayanch tushunchalar: tizim, ta'lim, metodik vositalar, darslik, izchillik, o'quv dasturlari, boshlang'ich sinf.

В данной статье рассматриваются проблемы и задачи создания современных учебников для начального образования.

Основные понятия: система, образование, методические пособия, учебник, последовательность, учебная программа, начальная школа.

This article discusses the problems and tasks of creating modern textbooks for primary education.

Key concepts: system, education, teaching aids, textbook, sequence, curriculum, elementary school.

Mustaqillik yillarida ta'lim tizimini isloh qilish, xususan, maktablarni darslik va o'quv adabiyotlar bilan ta'minlash, ularning yangi avlodini yaratish bo'yicha muayyan ishlar amalga oshirilmoqda. Yangi avlod darsliklari va o'quv qo'llanmalarini yaratishda ularning mazmuniga milliy istiqlol g'oyasini singdirish, har bir mavzuga yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishni nazarda tutish, o'quvchilarning mustaqil va erkin fikrlay olishiga erishish, ta'lim bosqichlari uzviyligining ta'minlanishiga alohida e'tibor qaratilmoqda. Bu borada har yili qayta nashr etilishi rejalashtirilgan darslik hamda o'quv qo'llanmalari mazmuni va sifati bo'yicha olimlar, uslubchi va amaliyotchi o'qituvchilar tomonidan ekspertizadan o'tkazilishi yo'lga qo'yilgan. Agar bundan 25 yil oldin maktab

o'quvchilarining atigi 55,4 foizi darslik bilan ta'minlangan bo'lsa, bugungi kunda mazkur ko'rsatkich 98,8 foizga yetganining o'ziyiq sohada olib borilayotgan izchil islohotlar samarasini ko'rsatadi. Co'nggi uch yil mobaynida umumta'lim maktablari uchun 1400 dan ortiq nomdagi 85 millionga yaqin nusxada darslik va o'quv-qo'llanmalari chop etildi. Mazkur darsliklarning 100 ga yaqini yangi avlod darsliklaridir.

Respublikamizda ta'lim tizimini takomillashtirish orqali har tomonlama barkamol, mustaqil fikrlashga qodir, irodali, fidoiy va tashabbuskor kadrlarni tayyorlashga katta e'tibor berilyapti. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonun va "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" qabul qilinishi ta'lim tizimida yuqori malakali mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlarni tayyorlash, ularda yuksak madaniyatni shakllantirish vazifasini qo'yadi. Bu vazifalarni bajarish ishlab chiqarishda yangi texnika va texnologiyalardan foydalana oladigan, yuksak malakali, raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratadi. Uzluksiz ta'lim tizimini o'quv adabiyotlarining yangi avlodi bilan ta'minlash yuzasidan O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Uzluksiz ta'lim tizimini darsliklar va o'quv adabiyotlari bilan ta'minlashni takomillashtirish to'g'risida"gi 1998 yil 5 yanvar qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2004-2009 yillarda Maktab ta'limini rivojlantirish Davlat umumilliy dasturi to'g'risida" 2004 yil 21 maydagi PF-3431-sonli Farmonini bajarish yuzasidan hamda Davlat ta'lim standartlari talablariga javob beradigan zamonaviy o'quv adabiyotlari va o'quv-metodik qo'llanmalarni tayyorlash, nashr etish va ta'lim muassasalarini ular bilan ta'minlashning kompleks tizimini yaratishga qaratilgan Vazirlar Mahkamasi qarorlari, O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining 1999 yil 28 sentyabrdagi 288-sonli "Uzluksiz ta'lim tizimini o'quv adabiyotlari bilan ta'minlash to'g'risida"gi hamda 2001 yil 20 fevraldagi 43-sonli "Darsliklar yaratishni jadallashtirish to'g'risida"gi buyruqlari asosida ishlar amalga oshirilmoqda.

Kadrlar tayyorlash milliy modeli talablariga muvofiq ishlab chiqilgan "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi avlodini yaratish konsepsiyasi"da o'quv adabiyotlarini yaratish uchun ilmiy-g'oyaviy, uslubiy-didaktik, psixologik-pedagogik, sanitariya-gigienik talablarni ishlab chiqish, elektron darsliklardan to'g'ri va rasional foydalanish maqsadida ularning mavjud shakllari va turlariga aniq zamonaviy o'quv va elektron darsliklar tayyorlash bo'yicha strategik masalalar ko'lami belgilangan.

O'quv adabiyotlari sifatiga qo'yiladigan muhim talab-mavzularning dolzarbligi, ularda respublikada olib borilayotgan ijtimoiy-siyosiy, demokratik o'zgarishlar, iqtisodiyotni erkinlashtirish va modernizasiyalash hamda ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, ma'naviy, huquqiy va boshqa sohalaridagi islohotlarning ustuvor masalalari qamrab olinishidir. Shu bilan birga soha bo'yicha fan, texnika va texnologiyaning so'nggi yutuqlari, ilg'or xalqaro tajriba va taraqqiyot tendensiyalari hisobga olinishi shart.

O'quv adabiyotlarini yaratishda "Kadrlar tayyorlash milliy dasturi" asosida respublikada joriy etilgan uzluksiz ta'lim tizimining ta'lim turlari (o'rta, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi, oliy ta'lim) o'rtasidagi uzviylik va uzluksizlikni

alohida e'tibor berish, mustaqil ta'lim
adabiyotlarining mazmuni ta'lim
bilimlarni bosqichma-bosqich boyitish, mukammallashtirib borish, mustaqil ta'lim
olish, yangi bilimlarni o'quv adabiyotlaridan izlab topish ko'nikmalarini
shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak.

Darslikning ta'lim-tarbiya jarayonidagi o'rni va ahamiyati ta'lim-tarbiyaga
oid davlat hujjatlarida, darslik nazariyasiga oid tadqiqot ishlarida batafsil
yoritilgan. Xususan, "Uzluksiz ta'lim tizimi uchun o'quv adabiyotlarining yangi
avlodini yaratish konsepsiyasi"da "darslik davlat ta'lim standarti, o'quv dasturi,
o'quv uslubiyati va didaktik talablar asosida belgilangan, milliy istiqlol g'oyasi
singdirilgan, muayyan o'quv fanining mavzulari to'liq yoritilgan, tegishli fan
asoslarining mukammal o'zlashtirilishiga qaratilgan hamda turdosh ta'lim
yo'nalishlarida foydalanish imkoniyatlari hisobga olingan nashr" ekanligi qayd
etilgan. Ta'limni tashkil etish va amalga oshirishning muhim vositasi sifatida
darslik DTS, o'quv dasturi va rejasi, qo'llanma hamda tavsiyalar kabi o'quv-
tarbiya jarayonining loyihasi yoki ssenariysi vazifasini bajaradi. Darslikda
muayyan o'quv predmeti doirasida didaktik tamoyil va mezonlarga tayangan holda
pedagogik jihatdan qayta ishlangan bilim asoslaridan iborat ta'lim mazmuni hamda
metodikasi o'z ifodasini topadi. U vizuallik xususiyatiga ega. Demak, darslik
ta'lim jarayoni samaradorligini ta'minlashning asosiy vositasidir.

O'QISH KITOBLARI YARATILISHI TARIXIGA OID AYRIM MULOHAZALAR

H.G'. Jumayeva, *Peshko' tuman*
11-maktab boshlang'ich sinf o'qituvchisi

Bu maqolada boshlang'ich sinflar darsliklarining yaratilish tarixiga oid fikrlar ko'rib
o'tilgan bo'lib, bugungi kunda zamonaviy darsliklar yaratish muammolari ustida izlanilgan

Tayanch tushunchalar: *boshlang'ich sinf, ta'lim, ta'lim vositalari, darslik, izchillik,
o'quv dasturlari, tizim, pedagog.*

*В этой статье обсуждается история создания учебников для начальной школы и
рассматриваются проблемы создания современных учебников сегодня.*

Ключевые понятия: начальная школа, образование, учебные пособия, учебник,
преемственность, учебный план, система, педагог.

This article discusses the history of creating textbooks for elementary school and discusses
the problems of creating modern textbooks today.

Key concepts: elementary school, education, teaching aids, textbook, continuity,
curriculum, system, teacher.

XX asr boshlarida "usuli savtiya" maktablari paydo bo'lishi bilan bu
maktablar talabalariga mo'ljallangan ko'plab alifbo va o'qish kitoblari (majmualar)
ham maydonga kela boshladi. O'zbek adabiyotidagi bolalar uchun maxsus
yaratilgan ilk alifbo taniqli o'zbek ma'rifatparvari Saidrasul Aziziyning 1902-yilda